O‘ZBEKISTON
IJTIMOIY-IQTISODIY GAZETA
# BUNYODKORI
СТРОИТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА
№3 (656) 2023 йил 17 январь, сешанба
uzbunyodkor | t.me/uzbunyodkor | info@uzbunyodkor.uz
Газета 2016 йил 2 августдан ҳафтанинг сешанба ва жума кунлари чиқади.

## ЭНЕРГИЯ ТАЪМИНОТИДАГИ МУАММОЛАР ТАНҚИДИЙ ТАҲЛИЛ ҚИЛИНДИ

**Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 16 январь куни аҳолини энергия ресурслари билан узлуксиз таъминлаш чора-тадбирлари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди.**

Сўнгги кунларда юртимизга совуқ ҳаво оқими кириб келди. Энергия ва иссиқлик таъминотида узилишлар кузатилди. Давлатимиз раҳбари бу масалага чуқур тўхталиб, тезкор чоралар кўрилишини таъкидлади.

– Мен совуқдан қийналаётган ҳар бир оила, ҳар бир инсоннинг ҳолатини чуқур ташвиш ва изтироб билан юрагимдан ўтказаяпман, – деди Шавкат Мирзиёев. – Буни ҳар бир раҳбар ҳис қилиши керак. Бу йилги совуқ бутун тизимнинг аҳволини, қишга тайёргарлик енгил-елпи бўлганини кўрсатди. Энди бундай давом этиши мумкин эмас. Юзага келган вазиятни ўнглаш учун тезкор чоралар кўрамиз.

Йиғилишда табиий газ ва электр таъминоти, коммунал соҳадаги муаммолар танқидий таҳлил қилинди.

Масалан, Тошкент шаҳрида ўнлаб маҳаллаларда электр ва газ таъминотида узилишлар бўлган. Айрим трансформатор ва паст кучланишли тармоқлар ортиқча юкламага бардош беролмай ишдан чиққан.

Бунинг сабаби қурилишга рухсат берилганда, мавжуд инфратузилмага юклама бўйича аниқ ҳисоб-китоб қилинмаган. Пойтахтнинг Бош режаси ҳалигача тасдиқланмаган. Рухсатсиз қурилган объектлар сони 250 дан ошиб кетган.

Шу боис, вазиятга олдиндан баҳо бериб, қиш мавсумига лозим даражада тайёргарлик кўрмагани учун Тошкент шаҳар ҳокими Ж. Ортиқхўжаев лавозимидан озод этилди.

Тошкент вилояти ҳокими З. Мирзаев қатъий огоҳлантирилди, шунингдек, республикадаги бир қатор туман ва шаҳар ҳокимларига ҳайфсан берилди.

Талимаржон иссиқлик станциясининг энергия блокини таъмирлаш ва электр энергияси ишлаб чиқаришни таъминламагани учун энергетика вазири ўринбосари Ш. Ходжаев ва “Иссиқлик электр станциялари” акциядорлик жамияти раҳбари Ф. Абдураҳмонов вазифасидан озод қилинди. Шунингдек, “Ўзтрансгаз”, “Ўзбекнефтгаз” ва “Ҳудудий электр тармоқлари” акциядорлик жамиятлари раҳбарларига интизомий жазо ва синов муддати белгиланди.

Электр ва газ тармоқларида талон-торожлик кўплиги кўрсатиб ўтилди. Охирги ойларнинг ўзида нефтгаз ва энергия назорати тизимларида 192 та коррупция ҳолатлари аниқланган. Давлат хавфсизлик хизмати ва Бош прокуратурага бу соҳалардаги коррупцияни йўқ қилиш, автомобилга газ қуйиш шохобчаларидаги ўғриликларга чек қўйиш бўйича кўрсатмалар берилди.

Йиғилишда электр ва газ тармоқларининг узлуксиз ишлашини таъминлаш бўйича тезкор чора-тадбирлар белгиланди.

Бош вазир ва энергетика вазирига барча имкониятларни ишга солиб, мавжуд ресурсларни адолатли тақсимлаб, муаммоли маҳаллаларга зудлик билан энергия етказиб бериш вазифаси қўйилди. Хориждан малакали мутахассисларни жалб қилиб, бошқарув ва ишлаб чиқариш жараёнларини рақамлаштириш зарурлиги таъкидланди.

Иқтисодиёт ва молия вазирига энергетика соҳаси корхоналарида ҳисоб-китобларни тартибга солиш ва молиявий масалаларни ҳал қилиш бўйича топшириқ берилди.

Энергия таъминотидаги узилишларнинг сабаблари ва кўрилаётган чораларни халқимизга ўз вақтида тушунтириб бориш керак. “Саховат ва кўмак” жамғармасидан ёлғиз қариялар, кўп фарзандли эҳтиёжманд оилаларга ёрдам берилади, оғир ҳолларда улар иситилган жойларга кўчирилади.

Деҳқон бозорларида шароитларни яхшилаб, маҳсулотлар безарар сақланиши ва нарх-наво барқарорлигини таъминлаш ҳам муҳимлиги таъкидланди.

Энергетика корхоналари раҳбарлари ва ҳокимларга келгусида бундай вазиятга йўл қўймаслик учун ҳозирдан аниқ чораларни белгилаш бўйича кўрсатмалар берилди.

Йиғилишда энергетика вазири ва ҳокимлар жойларда кучайтирилган тартибда олиб борилаётган ишлар юзасидан ахборот берди.

**ЎзА.**

# КЎҲНА БУХОРО янгиланишларга муҳтожми?




**Райҳона ХЎЖАЕВА, “O‘zbekiston bunyodkori” мухбири.**

**Ўтган ҳафтадан буён ижтимоий тармоқларда кўплаб шов-шувларга сабаб бўлган мавзу – фақатгина газ ва светнинг йўқлигию, аномал совуқ эмас, балки Бухоро шаҳрида қурилиши режалаштирилаётган “Туризм маркази” масаласи ҳам бўлди, десак муболаға бўлмайди. Шаҳар марказидаги бу қурилишдан норози бўлган бухороликлар Президентга мурожаат йўллашди.**

Бунга ҳукуматнинг Бухоро шаҳри марказидаги 29 та бино ва иншоот бузилиб, 32,6 гектар ерда Бухоро туризм маркази қуришга қарор қилингани сабаб бўлган. Бухоро туризм маркази қурилиши инвесторнинг маблағлари ҳисобидан амалга ошириши белгиланган бўлиб, қурувчи ташкилот сифатида Enter Engineering компанияси белгиланган. Президентга мурожаат йўллаган аҳоли бузилиши мумкин бўлган бинолардан бири – спорт иншооти халқ учун кераклигини айтишган ва бу ҳудудда қурилиш олиб борилишига мутлақо қарши эканликларини билдиришган.

Бу масалага аниқлик киритиш ва жамоатчиликка батафсил маълумот бериш мақсадида Бухорода қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазири Б.Закиров ва бошқа масъуллар иштирокида шаҳар марказида туристик мажмуа қурилиши юзасидан матбуот анжумани ўтказилди. Унда масъуллар, сектор раҳбарлари, журналист ва блогерлар ҳамда кенг жамоатчилик вакиллари иштирок этди.

Бухоро шаҳрида қурилиши режалаштирилган “Туризм маркази” таклиф лойиҳаси ҳақида:

шаҳарнинг туристик жозибадорлигини юксалтириш, қулай сайёҳлик инфратузилмаси асосида қурилиш лойиҳаларини амалга ошириш бўйича Бухоро шаҳрида 5 та ҳудуд ўрганилди. Эскиз ва бош режалари ишлаб чиқилиб, тақдимотлари ўтказилди. Ушбу лойиҳалар бўйича инвесторларнинг таклифлари таҳлил қилиниб, очиқ танлов асосида сараланди. Бунинг учун кўплаб нуфузли хорижий мутахассис, архитекторларнинг фикрлари, таклифлари инобатга олинди.

Лойиҳага кўра, “Туристик марказ” ҳудудида Бухоронинг “эски шаҳар” қисмига монанд, катта бўлмаган меҳмонхоналар, миллийлик ва замонавийлик уйғунлашган “туризм шаҳарчаси”ни барпо этилиши ҳисобига ташриф буюрувчи сайёҳларнинг эркин (пиёда) ҳаракатланиши учун имконият яратилади. Тарихий марказнинг мантиқий давоми сифатида унга уйғунликда янги туризм шаҳарчаси шаклланади ҳамда аэропорт ва темир йўл вокзалидан аниқ йўналиш бўйича транспорт қатнови йўлга қўйилади. Туристларни Бухорода бўлиш вақтини узайтириш бўйича тунги пайтда маданий тадбирлар, гастрол концерт, театрлашган томошалар, форум, ярмарка ва учрашувлар ташкил этилиши учун энг жозибали ҳудуд пайдо бўлади. Янги туризм йўналиши, савдо ва маиший хизмат кўрсатиш имкониятлари кенгаяди, минглаб янги иш ўринлари яратилади. Асосийси, Бухоро шаҳрининг “эски шаҳар” қисмига туташ ҳудуддан “Туризм шаҳарчаси”нинг барпо этилиши сайёҳлар учун туристик зоналар майдони кенгайишига олиб келади.

Матбуот анжуманида Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазири Бухоронинг эски шаҳар ҳудудидаги биноларнинг бирорта ғиштига ҳам тегилмаслигини алоҳида таъкидлади.

Бухоро вилояти ҳокими Ботир Зарипов мулоқотда вилоятнинг яқин келажакдаги асосий йўналиши туризм бўлишини таъкидлаб, бузиладиган жойларда бирорта фуқаронинг яшаш жойи йўқлиги ҳамда уларнинг манфаатига зарар етмаслигини айтди. Шунингдек, ҳоким айни кунда ижтимоий тармоқларда тарқалаётган воқеаларга изоҳ берар экан, шаҳар ҳудудида бузилиши кўзда тутилган 19 та бинонинг 11 таси тадбиркорларга тегишли эканини, бирорта фуқаронинг манфаатига зарар етказилмаслигини тушунтирди.

▶ 2-бет

### ПРЕЗИДЕНТ ТОПШИРИҒИ АМАЛДА

## Кўз микрохирургия тиббиёт маркази ишга тушди

**Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев 2021 йил февраль ва сентябрь ойларида Наманганга ташрифи чоғида вилоятда аҳолига сифатли тиббий хизмат кўрсатишни янада такомиллаштириш мақсадида Республика ихтисослаштирилган тиббиёт марказларининг филиалларини ташкил этиш топшириғини берган эди.**

Ушбу вазифалар ижросининг давоми сифатида, Республика ихтисослаштирилган кўз микрохирургия илмий-амалий тиббиёт маркази Наманган филиали фойдаланишга топширилди.

Шу муносабат билан ўтказилган тадбирда мамлакатимизда кейинги йилларда аҳоли соғлиғини муҳофаза қилиш, тиббиёт муассасалари учун мослаштирилган янги бинолар қуриш, уларни илғор ва замонавий тиббий жиҳозлар билан таъминлашга эътибор қаратилаётгани, энг аввало, тиббий хизматлар сифати юксалиб бораётгани таъкидланди.

Вилоят кўп тармоқли тиббиёт марказининг кўз касалликлари бўлими биносини таъмирлаш ва янги филиал очиш мақсадида маҳаллий бюджет ҳисобидан 1 миллиард 500 миллион сўм ҳамда 17 турдаги замонавий тиббий асбоб-ускуналар билан таъминлаш учун қўшимча 4 миллиард 400 миллион сўм ажратилди, деб хабар беради ЎзА мухбири Оқилхон Дадабоев.

Бунинг натижасида 60 ўринли ихтисослаштирилган кўз микрохирургия илмий-амалий тиббиёт маркази Наманган филиали ташкил этилди. Ушбу масканда шифокорларнинг самарали фаолият юритиши, шунингдек, марказга шифо излаб келувчилар учун барча шароитлар муҳайё қилинган.

Тиббий марказ очилишида Наманган вилояти ҳокими Шавкат Абдураззақов иштирок этди.

### ҚУРИЛИШ ВА УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИДА

## Бошқарув компаниялари фаолияти ўрганилди

**Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазири Батир Закиров бошчилигидаги мутасаддилар Тошкент шаҳридаги кўп қаватли уйлар ҳолати, хусусан, БСКларнинг бугунги фаолияти билан танишди. Дастлабки манзил Шайхонтоҳур тумани “Чарх Новза” маҳалласида жойлашган “Demetra capital development servis” БСК бўлди. Аҳоли фаоллари, уйбошилар билан бўлган учрашувда муаммолар ва уларни бартараф этиш масалалари хусусида сўз борди.**



Шунингдек, иссиқлик таъминотини яхшилаш бўйича охирги кунларда кўрилаётган чоралар бўйича аҳолига маълумот берилди.

Ҳозирги кунда ҳудудда кузатилаётган асосий муаммо газ босимининг пасайиб кетиши ва унинг натижасида иссиқлик энергиясининг етарли даражада берилмаётгани ҳамда электр энергиясидаги узилишлар экани таъкидланди. Мавжуд муаммолардан келиб чиқиб, тариф сиёсатини аҳоли билан кенгашган ҳолда кўриб чиқиш лозимлиги қайд этилди.

Вазир БСКлар амалга оширадиган йиллик иш режаларини шакллантириш ва тизимли ишлаш кераклигини вазифа сифатида таъкидлади.

Маълумот учун, ушбу компания 99 та кўп қаватли уйга хизмат кўрсатади.

Вазир бошчилигидаги мутасадди раҳбарлар ўрганиш ишларини пойтахтимизнинг Чилонзор тумани “Yashil makon standart” БСКда давом эттиришди. Хусусан, бошқарув ташкилотларининг биноси, аҳолига хизмат кўрсатиш имкониятлари, диспетчерлик хизматлари кўздан кечирилди. Б.Закиров бошқарув ташкилотлари ишчи-ходимларига муносиб шароит яратиш, бунда БСК биносини барпо этишда қулай архитектура ечимларидан фойдаланиш, ишчи-ходимларнинг дам олиши учун қулай имкониятларни яратиш лозимлигини таъкидлади.

Шунингдек, вазир бошқарув ташкилотларига аҳоли билан ишлашда ҳаққонийликка риоя этиши лозимлигини уқтирди.

Маълумот учун, “Yashil makon standart” БСК Чилонзор туманидаги 84 та кўп қаватли уйга хизмат кўрсатиб келади.

## Самарадорлик – муваффақият гарови

**Тошкент шаҳар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармасида ходимларнинг навбатдаги умумий йиғилиши бўлиб ўтди. Унда бош бошқарма бошлиғи С. Тўхтаев сўзга чиқиб, 2023 йилда қурилиш ва коммунал соҳада амалга оширилиши лозим бўлган ишлар, лойиҳалар ижроси ҳақида тўхталиб, барча ходимлар бу жараёнда жонбозлик кўрсатиши лозимлигини таъкидлади.**

Шунингдек, соҳага оид қонун, қарор ва бошқа норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ижросини таъминлашда сусткашликка йўл қўймаслик, ижро ҳамда меҳнат интизомига риоя этиш ва уларни кўриб чиқишда белгиланган муддатларга эътибор қаратиш ҳолатлари юзасидан тегишли топшириқлар берилди.

# Сирдарё: лойиҳалар сони кўпаймоқда

**Наргиза МИРЁҚУБОВА,**
"O'zbekiston bunyodkori" мухбири.




**Шаҳар ва туманларда қад ростлаётган муҳташам иншоотлар Янги Ўзбекистон қиёфасини тубдан ўзгартирмоқда. Хусусан, Гулистон шаҳрининг Янги ҳаёт маҳалласи улкан қурилиш майдонига айланган бўлиб, ҳудудда аҳоли учун арзонлаштирилган типдаги уй-жойлар бунёд этилмоқда.**

Биргина "Ўзшаҳарқурилишинвест" инжиниринг компанияси томонидан ўтган 2022 йилда 2 та 9 қаватли бинолар қуриб, фойдаланишга топширилди. Ҳар бир хонадон 3 хонали бўлиб, умумий ҳамжи 70 метр квадратдан иборат, қурилган уйларнинг барчаси зарур жиҳозлар билан таъминланган. Ушбу биноларнинг қурилиши учун 30 млрд сўм маблағ сарфланган. Келгусида компания томонидан яна 2 та 9 қаватли уйларни қуриш режалаштирилган.

– Компаниямиз давлат дастурини амалга ошириш мақсадида бу ерда 2 та 90 хонадонли 9 қаватли уйларни қуриб, барча шароит ва қулайликлар билан таъминлади, – деди "Ўзшаҳарқурилишинвест" ИК Сирдарё вилояти бўлими раҳбари Рустам Ширинбоев. – Хонадонларда газ, сув, электр энергияси тармоқлари мавжуд, замонавий лифтлар ўрнатилган. Болалар майдончалари, яшил ҳудудлар ташкил этилган. Компаниямиз келажакда халқимизни яна шундай шинам, қулай уйлар билан таъминлаш учун ўз муносиб ҳиссасини қўшишда давом этади.

Албатта, қурилиш бунёдкорлик ишлари ҳудудлар қиёфасини тубдан ўзгартирмоқда. Мазкур ишлар нафақат шаҳарларда, балки энг чекка ҳудудларда ҳам бўй кўрсатмоқда. Боёвут туманида 2022 йили Адлия бўлими учун замонавий бино қурилиб, фойдаланишга топширилди. Ушбу иншоотда аҳолининг давлат хизматларидан фойдаланишлари учун барча шароитлар яратилган. Кутиш заллари ҳамда ходимлар учун ажратилган хоналар замон талаби даражасида жиҳозланган. Мазкур саъй-ҳаракатлар натижасида аҳолининг сарсонгарчилик ҳолатларига чек қўйилмоқда.

– Ушбу бино кўркам ва барча жаҳон стандартларига мос келадиган жиҳозлар, ахборот-технология коммуникация техникалари билан таъминланган. – деди Шукрулло Ҳасанов. – Ушбу бинода Адлия бўлимидан ташқари Давлат хизматлари маркази, ФҲДЁ бўлими, Юридик хизмат кўрсатиш маркази бўлими фаолият олиб боради. Бинода ҳар битта ходимнинг ўзига алоҳида хона ажратилган. Хоналар замонавий ахборот хизматлари техникалари билан жиҳозланган. Иш олиб бориш учун ҳамма қулайликлар яратилган. Ушбу бинода Давлат хизматлари маркази бир кунда 60 та хизмат тури бўйича 350-400 га яқин аҳолига хизмат кўрсатиши йўлга қўйилмоқда. Барча куч-ғайратимиз ва билимларимизни халқимизга хизмат кўрсатиш учун сарфлашга ҳаракат қиламиз.

Боёвут туманида ўтган йил давомида ижтимоий соҳа объектларини қуриш ва таъмирлаш борасида ҳам кўплаб ишлар амалга оширилди. Ҳудуддаги "Қуёшча" давлат мактабгача таълим ташкилоти давлат дастури асосида қайта таъмирдан чиқарилди. Натижада болажонларнинг билим олишлари учун барча шароитлар яратилди.

– Боёвут шаҳарчасидаги ушбу мактабгача таълим ташкилоти 1971 йил ишга тушган. Ҳозирги кунда иккинчи маротаба таъмирдан чиқарилмоқда, – деди Маҳфуза Ҳидирова. – Боғчамиз 140 ўринга мўлжалланган. Ҳозирда 32 та ходим иш олиб бориб, улар 5 та гуруҳдаги болаларга таълим-тарбия бериб келишмоқда. Инглиз тили, рус тили, бадиий гимнастика тўгараклари йўлга қўйилган. Бизнинг боғчага янги жиҳозлар, идиш-товоқлар келтирилди. Барча жиҳозлар замонавий ва шароитлар тўкис муҳайё этилди.

Вилоятда қурилиш, бунёдкорлик ишлари кун сайин ортмоқда. Шу билан биргаликда қурилиш саноати ҳам тобора ривож топяпти. Ҳудудларда қад ростлаётган биноларга асосан маҳаллий хом ашёлар ишлатилмоқда. Бу иншоотларнинг арзон ва сифатли бунёд этилишида муҳим аҳамият касб этади. Сайҳунобод туманида иш бошлаган газоблок ишлаб чиқариш корхонаси ҳам асосан маҳаллий қурувчиларга маҳсулот етказиб беради.

– Заводимиз 2019 йилнинг учинчи чорагида ташкил этилган, – деди корхона иш юритувчиси Ғайрат Қурбонов. – Лойиҳанинг умумий қиймати 9,5 миллион АҚШ долларидан иборат бўлиб, маблағлар Афғонистон, Россия, БАА, Туркия давлатларидан келган инвесторларнинг тўғридан-тўғри ташқи инвестицияларини ўзида жамлаган. Мазкур автоклавланган газоблок ишлаб чиқариш корхонасида босқичма-босқич кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Қум, цемент, оҳак, альюминий, пудра ва бошқа кимёвий воситалар орқали автоклавланган газоблок ишлаб чиқарамиз. Газоблокнинг асосий хусусиятлари қурилишни тез ва сифатли олиб борилиши ҳамда харажатларни қисқаришига олиб келади. Шунингдек, у иссиқ ва совуқ ҳавога чидамли, шовқинни ўтказмаслиги учун махсус изоляторлар ўрнатилиб, жуда енгил қурилиш маҳсулоти ҳисобланади. Маҳсулотларимизни юртимизда фаолият юритаётган корхоналар етказиб беряпмиз, яқин келажакда эса чет давлатларга экспортни ҳам йўлга қўймоқчимиз. Заводга Ҳиндистон, Хитой ва Афғонистондан технолог ва қурувчилар таклиф этилган.

Корхонада бир кунда 500 куб метргача маҳсулот ишлаб чиқарилиб, 50 нафардан зиёд ишчиларнинг бандлиги таъминланган.

– Корхонада Ҳиндистон, Хитой, Афғонистон ҳамда ўзбекистонлик мутахассислар билан ҳамкорликда иш олиб бормоқдамиз, – деди ҳиндистонлик технолог Шоҳ Фейзал. – Инвесторлар учун жудаям ҳам яхши шароитлар яратилган. Ишлаб чиқараётган маҳсулотларимизни ички ва ташқи бозорга йўналтиряпмиз. Ўрнатилган технологияларимиз замонавий бўлиб, улар энергиятежамкор ҳамда самарадорлиги юқори. Биз ҳиндистонлик мутахассислар ушбу дастгоҳларни монтаж ишларида иштирок этяпмиз. Ҳозирги кунда ўзбекистонлик ёшлар билан тажрибалар алмашяпмиз. Келажакда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни нафақат МДҲ давлатларига, балки Европа мамлакатларига ҳам сотиш ниятимиз бор. Чунки, маҳсулотларимизга талаб юқори ва сифати аъло даражада деб ҳисоблайман.

Сирдарё туманида ҳам газоблок ишлаб чиқариш лойиҳаси амалга оширилган. "Евро Азия газ-бетон" МЧЖ томонидан йўлга қўйилган мазкур корхонада 150 та иш ўрни яратиш йўлга қўйилган. Лойиҳа қиймати 15,4 миллион еврога тенг.

– Бу соҳада иш бошлаганимга 20 йилдан ошди, – деди туркиялик мутахассис Сенан Ўғуз. – Сирдарё туманидаги газоблок ишлаб чиқариш корхонасида ўзбекистонлик ҳамкорлар билан иш олиб бормоқдамиз. Мазкур технологияларимиз Европа талабларига жавоб бериб, ишлаб чиқарилаётган қурилиш маҳсулотлари биноларнинг тез ва сифатли барпо бўлишига хизмат қилади. Газоблок ишлаб чиқариш учун сифатли маҳаллий хомашёлардан фойдаланилмоқда. Мени шу нарса қувонтирадики, ўзбекистонлик ёшлар ушбу соҳани жуда тез ўзлаштиришяпти. Келажакда бу соҳада ҳам ҳамкорликни янада кенгайтириш ниятимиз бор.

– Сирдарё туманида фаолият юритаётган "Евро Азия газ-бетон" корхонасини ишга тушириш ҳисобига 200 та иш ўрни яратилиши белгиланган, – деди Сирдарё тумани ҳокими ўринбосари Махсум Солиев. – Корхонанинг йиллик қуввати 400 минг куб газоблок ишлаб чиқаришга мўлжалланган. Ушбу корхонага Туркия, Россия, Нидерландия, Хитой ҳамда Ўзбекистон етакчи мутахассислари жалб қилинган бўлиб, ушбу корхонанинг ишга туширилишида хорижий давлатлардан келган етакчи мутахассислар ўзларининг ҳиссасини қўшишмоқда. Бугунги кунда Нидерландиянинг "Эл Крид" компанияси мутахассислари корхонада асбоб-ускуналарни ўрнатиш ҳамда уларни ишга тушириш ишларини олиб боришмоқда. Шунингдек, корхонада 2023 йили лойиҳани кенгайтириш кўзда тутилган.

Сирдарё вилоятида бу каби лойиҳаларнинг сони анчани ташкил этади. Қурилиш суръати ҳам шунга мос тарзда ўсиб бормоқда. Натижада ҳудудларнинг қиёфаси янгиланиб, аҳоли учун муносиб шароитлар яратиляпти.

# КЎҲНА БУХОРО янгиланишларга муҳтожми?

◀ 1-бет

Шунингдек, 2025 йилга бориб туристлар оқимини 8-10 миллионга етказиш режалаштирилган бўлиб, айни кундаги шаҳар инфратузилмаси туристларни кутиб олиш талабига жавоб бермаслигини ҳам таъкидлади.

Анжуманда айтилганидек, 2022 йилда Бухорога ташриф буюрган сайёҳлар оқими қарийб 3,5 млн (маҳаллий сайёҳлар – 2,9 млн нафар, хорижий сайёҳлар сони 550 минг нафар)га етган бўлса, мазкур шаҳарча барпо этилиши ҳисобига ташриф буюрувчи хорижий сайёҳлар сони 4 бараварга ошиб, жами 8 млн нафарга етказилади. Таҳлилларга кўра, 2022 йилда вилоятга ташриф буюрган сайёҳлардан бюджетга 0,2 млрд АҚШ доллар тушган бўлса, ушбу шаҳарчанинг барпо этилиши билан маҳаллий бюджетга туризм хизматларидан тушум 1,0 млрд АҚШ долларга етказилади. Таҳлиллар "Туризм шаҳарчаси" барпо этилиши ва қўшимча сифатли хизмат турлари кўрсатилиши ҳисобига сайёҳларнинг ҳудудда қолиш муддатларининг 5-6 кунга узайишини ҳам кўрсатмоқда.

Бундан ташқари, [sic] билан, шаҳар марказидаги турар жой бинолари, ижтимоий соҳа объектларининг коммуникация тармоқларининг янгиланишига ҳам эришилади.

Марказнинг лойиҳа таклифи ҳал бўлгач, жамоатчиликка муҳокама учун қўйилади. Бухоро шаҳрида амалга ошириладиган ҳар қандай қурилиш ишлари ЮНЕСКО ташкилоти талаблари асосида бажарилади. Бу ҳақда матбуот анжуманида қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазири ҳам алоҳида таъкидлаб, шундай деди:

– Марказнинг лойиҳа таклифи бўлгач, жамоатчиликка муҳокама учун қўйилади ҳамда Бухоро шаҳрида аҳоли учун алоҳида тақдимот қилиб берилади. Айни вақтда ўрганиш ишлари олиб борилмоқда, холос. Бу дегани эртадан бузилиш бошланади дегани эмас, ҳали охирги нуқта қўйилганича йўқ. Бу ҳозир лойиҳа таклифи, ҳали ЮНЕСКО билан келишиш босқичи бор. Ҳозир марказ тушадиган жойда хатлов ишлари олиб борилмоқда. Яъни тартибга кўра, у ерда қанча бино бор, кимга тегишли экани ҳақида маълумот йиғилади. Агар марказ ўрнида жойлашган бино ва иншоотлар бузиладиган ёки бошқа жойга кўчириладиган бўлса, лойиҳа танловида ютган тадбиркорлик субъекти томонидан ўрнига ўрин қуриб бериш ёки ўрнатилган тартибда конпенсация тўлаб берилади.



Туризм марказининг лойиҳа концепцияларини ишлаб чиқиш жорий йилнинг февраль ойи якунига режалаштирилган бўлиб, лойиҳалаштириш жараёнида муҳандислик тармоқларини реконструкция қилиш ҳисобига мавжуд қувватларни ошириш кўзда тутилган. Яъни, ташкил этиладиган туризм маркази ҳудудидаги подстанция ва 2 дона қуввати 4000 кВА трансформатор 50 фоиз юклама билан ишламоқда. Бундан ташқари, ҳудудда 32 дона трансформатор пунктлари мавжуд бўлиб, 18 таси 40 йилдан ортиқ ишлаган ва эндиликда улар эскирган.

Мазкур ҳудуддаги газ қувурлари 1958-1970 йилларда қурилган бўлиб, бугунги кунда таъмирталаб ҳолга келиб қолган. Янги марказ қурилишида ана шу муаммолар чуқур таҳлил қилинган ҳолда, инфратузилмани янгилаш, модернизация қилиш ҳам назарда тутилган. Бу билан, шаҳар марказидаги турар жой...

Ҳар не бўлганда ҳам, "Янги уйни қурмасдан, эскисини бузма" деган нақл борлигини унутмасак бас. Кўҳна ва боқий Бухоро янгиланишларсиз ҳам ўзининг сеҳрли жозибаси билан доимо сайёҳлар назарида бўлиб келган. Ўйлаймизки, янгидан барпо этилиши мўлжалланаётган шаҳарча ва бошқа объектлар унинг асл қиёфасига путур етказмасдан, янада кўркам ва салобатли шаҳарга айланиши учун хизмат қилади.

Сўнгги маълумотларга кўра, "Бухоро туризм маркази" лойиҳаси бўйича кенг жамоатчилик ва фуқаролар фикри инобатга олиниб, бошқа мақбул ер майдонлари танланадиган бўлди.

**МУНОСАБАТ**

# Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотлар йўлида

**Жамшид ҲАМРОЕВ,**
Навоий вилояти адлия бошқармаси ходими, 2-даражали юрист.

**Тараққий этган давлатлар тажрибасига назар ташлайдиган бўлсак, бошқарув тизимини ихчамлаштириш ва тармоқлараро институционал мустақилликни таъминлаш демократик қадриятлар сирасига киришини кўриш мумкин. Мамлакатимиз раҳбари томонидан кенг жамоатчиликка йўлланган Мурожаатномада ҳам 2023 йил учун белгилаб берилган 6 та муҳим йўналишнинг биринчиси, айнан бошқарув тизимини ихчамлаштириш ва ижро ҳокимияти органларининг институционал мустақиллигини оширишга қаратилгани бу жараён нақадар муҳим аҳамиятга эга эканлигидан далолат.**

Давлатимиз раҳбарининг 2022 йил 21 декабрдаги "Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармонида ҳам мазкур йўналишдаги вазифалар аниқ белгилаб берилди. Унда ҳар бир вазирнинг сиёсий мақоми, Президент, парламент ва жамоатчилик олдидаги масъулияти оширилиши белгиланган. Мос равишда жавобгарлиги ҳам кучайтирилиши, уларга аҳоли муаммоларини ҳал қилиш учун етарли ваколат ва маблағ берилиши кўрсатилиб, бу орқали ижро этувчи ҳокимият органларининг молиявий ва институционал мустақиллигини ошириш асослари қонуний белгилаб берилган. Албатта мазкур тизим ҳудудлар билан ишлашнинг самарали механизмини жорий этишда ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Ушбу жараён ҳукумат қарорлари лойиҳалари, мамлакатимиз ҳаётидаги муҳим ижтимоий-иқтисодий масалалар вазирлар иштирокида муҳокама қилиниб, коллегиал ҳал этиш орқали амалга оширилади.Содда қилиб айтганда, вазирлар янги қарор лойиҳаларини ўзлари ишлаб чиқади, қарор лойиҳасининг долзарблиги, ташкилий-молиявий механизмлари ва кутилаётган натижаларини ҳукумат аъзолари олдида ўзлари ҳимоя қилади. Бу табиийки, дунё давлатлари тажрибасидаги каби ҳар бир тизим учун ўз фаолиятига оид қарорларни мустақил қабул қилиш имкониятини беради.

Хулоса қилиб айтганда, ушбу ҳужжат мамлакатимизда сиёсий ислоҳотларнинг халқчиллигини таъминлаш, бошқарув тизимини янада ихчамлаштириш орқали самарадорлик кўрсатгичларини оширади. Бунда "Жамият – ислоҳотлар ташаббускори" тамойили устувор. Бошқарув тизими қанчалар ихчам ва мустақил бўлса, мамлакатда демократик қадриятлар шу қадар ривожланади. Зеро, бу мақсад замирида юртбошимиз таъкидлаганидек, "Аввал – инсон, кейин – жамият ва давлат" ғояси мужассам.

# Режа ва дастурлар аниқ

**Рашиджон ХУДОЙҚУЛОВ,**
Тошкент давлат транспорт университети Автомобиль йўлларини қидирув ва лойиҳалаш кафедраси мудири, профессор.

**Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрь куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига навбатдаги Мурожаатномаси халқимиз томонидан қизғин кутиб олинди. Президент Шавкат Мирзиёев 2022 йил ғоят мураккаб ва синовли йил бўлганини, тараққиётга – фақат машаққатли ва жасоратли меҳнат орқали эришилади, дея таъкидлади. Ҳар галгидек, Мурожаатноманинг энг ҳаяжонли қисми янги йилга ном берилиши бўлди. Давлатимиз раҳбари кириб келаётган 2023 йилга мамлакатимизда Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили, деб ном беришни таклиф этди.**

Жорий йил учун режа ва дастурлар аниқ белгилаб олинар экан, мустақиллик йилларида эришилган ютуқларимизни янада мустаҳкамлаб, энг муҳим ва устувор соҳаларни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиши зарур. Таълим сифатини ошириш – Янги Ўзбекистон тараққиётининг яккаю ягона тўғри йўлидир, "Нажот — таълимда, нажот – тарбияда, нажот – билимда. Чунки, барча эзгу мақсадларга билим ва тарбия туфайли эришилади", дея таъкидлади мамлакат раҳбари.

Албатта, таълим соҳасидаги навбатдаги муҳим йўналиш, бу – ёшларнинг замонавий касб-ҳунар эгаллаши учун барча зарур шарт-шароитларни яратишга замин яратади. Айниқса, мактаб битирувчиларининг 50 фоизи меҳнат бозорига ҳеч қандай касбга эга бўлмасдан кириб келаётгани ҳаммамизни ўйлантириши кераклиги, шу боис, 700 дан ортиқ касб-ҳунар мактаби, коллеж ва техникумлар имкониятидан самарали фойдаланиш зарурлигига урғу берилди. Шу билан бирга, иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлашни кенгайтириб, кимё саноати, электр техникаси, транспорт ва энергетика соҳаларида нуфузли халқаро ташкилотлар билан бирга, алоҳида Муҳандислик мактаблари ташкил қилиниши, янги замон инженерлари тайёрлаш тизимини яратилиши бизни ғоятда мамнун қилди.

2022 йилда Тошкент давлат транспорт университетида қатор ишлар амалга оширилиб, бир қатор ютуқлар қўлга киритилди. Хусусан, Автомобиль йўллари муҳандислиги факультети ҳамда Автомобиль йўлларини қидирув ва лойиҳалаш кафедраси профессор-ўқитувчилари томонидан бугунги кунга қадар 20 га яқин дарсликлар, 100 дан ортиқ ўқув-услубий қўлланмалар яратилди. Ўзаро халқаро ҳамкорлик доирасида Белорусь миллий техника университети ўртасида ўзаро ҳамкорлик шартномаси тузилиб, унинг асосида ўтган йили 6 нафар профессор-ўқитувчиларимиз стажировка амалиётларини ўтаб келдилар. Шунингдек, белоруслик ҳамкасбларимизнинг 2 нафари бизнинг университетда стажировка ўтаб кетдилар.

Ҳамкорлик доирасида ишлаб чиқилган 2 та дастурий таъминот доирасида талаба- ёшларимиз автомобиль йўллари ва геодезия фанлари бўйича ўз билимларини ошириб, автомобиль йўлларини лойиҳалаш, битирув малакавий ишларини бажариб келишмоқда. Улар бунинг натижасида касб сертификатига эга бўлиб, ишлаб чиқариш жараёнларига жалб этилди. Бу эса биз педагогик жамоанинг катта ютуғидир.

2022 йилнинг 30 ноябрида Тошкент давлат транспорт университети ҳамда Белоруссиянинг "Кредо Диалог" компанияси билан ҳамкорликда Ахборотни моделлаштириш технологиялари мавзусида хорижий олимлар иштирокида конференция ўтказилди. Шунингдек, конференция доирасида талабаларнинг билимларини ошириш мақсадига қаратилган викторина ўйинлари ташкил этилди. "Кредо Диалог" компаниясининг 20 минг АҚШ доллари миқдоридаги дастури беғараз ёрдам сифатида тақдим этилди. Келажакда ушбу дастур асосида лойиҳачилар, йўл муҳандислари, умуман соҳа мутахассисларини малакасини ошириш маркази сифатида дастурий манба сифатида хизмат қилади. Компания 30 йилдан ортиқ вақт мобайнида автомобиль йўлларининг қидируви, геология, тоғ-кон ишлар, автомобиль йўлларини лойиҳалаш ва бошқа кўплаб йўналишдаги 50 дан ортиқ автоматлашган таъминотларни тайёрлашда етакчи компания ҳисобланади.

# Кучли назорат натижа беради

**Халқимизда "қоғоздан иморат қуриб бўлмайди" деб бекорга айтилмаган. Зеро, катта-кичик бўлсин, ҳар бир иншоотни бошлаш аввалида пойдевордан тортиб, бошқа барча ишлар энг аввало, унга мос тайёрланган лойиҳада кўрсатилгани сингари бажарилса, бино мустаҳкам ва ҳар қандай ташқи кучларга бардошли бўлади. Аксинча, қўл учида бажарилган иш куни келиб, ташвиш келтириши мумкин.**

Бугунги кунда республикамиз ҳудудларида олиб борилаётган бунёдкорлик ишларида бу муҳим жиҳат Қурилиш соҳасида ҳудудий назорат инспекциясининг доимий эътиборига олингани натижасида қад ростлаётган иншоотлар нафақат сифати, балки мустаҳкамлиги билан ҳам халқимизнинг эътиборини тортмоқда.

Бухоро вилоятида ҳам якунланган йилда бир қанча кўп қаватли турар жойлар, маъмурий ва ижтимоий объектлар бунёд этилиб, фойдаланишга топширилди. Улар сифат жиҳатидан вилоятнинг чиройини янада очишга ҳисса қўшган бўлсада, қурилиш соҳасида меъёрий тартиб-тамойилларга амал қилмаган ташкилотлар ҳам учраганини инкор қилиб бўлмайди.

– Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикаси қурилиш вазирлиги ҳузуридаги қурилиш соҳасида назорат инспекцияси фаолиятига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги ва "Объектларда давлат қурилиш назоратини амалга ошириш бўйича маъмурий регламент ҳамда объектларнинг хавф-хатарлар тоифалари таснифини тасдиқлаш тўғрисида"ги қарорларига асосан Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ҳузурида қурилиш соҳасида ҳудудий назорат инспекцияси ваколатлари, унинг низоми тасдиқланган, – деди Инспекция бош мутахассиси Нозимжон Жумаев. – Мазкур ҳужжатларга кўра, ходимларимиз ҳудудда олиб борилаётган қурилиш-монтаж ишларининг сифат назорати, қурилишларнинг бош режаси ҳамда аҳоли пунктларига мослиги, объектларнинг шаҳарсозлик қонуности ҳужжатларини ўрганмоқда ва қатъий назоратга олган.

Ўтган йил якунлари бўйича ўрганишлар жараёнида амалдаги талаб ва тартибларни бажармасдан ўзбошимчалик билан ишларни бошлаб юборган ташкилотлар аниқланиб, улар билан ўз вақтида тушинтиришлар олиб борилди ва камчиликлар ўрнида бартараф этилди. Масалан, Бухоро шаҳри марказида тадбиркор Азизбек Жўраев раҳбарлик қилаётган "Ҳадича имкон плюс" МЧЖ томонидан турар жойга мўлжалланган 5 қаватли бинони қуриши учун зарур техник ҳужжатлар олинмасдан иш бошлаб юборилган. Инспекция мутахассислари томонидан тадбиркорлик субъекти раҳбарига зарур кўрсатмалар берилгандан сўнг, камчиликлар бартараф қилинди. Айтиш жоизки, асосий мақсади янги қурилаётган кўп қаватли уй-жойларнинг қурилиш талаби, сифат назоратини ўрганиш, уларнинг мустаҳкам, мукаммал ва шаҳарсозлик меъёрларига жавоб бериши, бинода техник, муаллифлик ҳамда ички назорат тўғри ташкил этилишини таъминлашдан иборат.

Белгиланган талабларга эътибор бермасдан ўз ишини бошлаган яна бир тадбиркор Ҳабиб Ҳайитов ҳам кўп қаватли бино қуришга киришган. Натижада, у ҳам огоҳлантирилиб, вақтида йўл қўйилган камчиликлар тузатилди. Бухоро шаҳрининг Иброҳим Мўминов кўчасида "Бунёдкор Шаҳзод" МЧЖ жамоаси қураётган аҳоли яшаши учун мўлжалланган 7 қаватли бинода ҳам кўплаб хатоликлар аниқлангани учун фаолияти вақтинчалик тўхтатилиб, камчиликлар тузатилгач, қурилиш ташкилотига бунёдкорлик ишларини давом эттиришга рухсат берилган.

Ўрни келганда шуни айтиш керак, жойлардаги ҳудудий назорат инспекциялари мутахассисларининг мақсади фақат шаҳарлар ҳудудларида олиб борилаётган қурилиш ишларининг техник камчиликларни аниқлаб, уни бартараф этиш, тадбиркорларни тегишли тартибда жазо ёки огоҳлантириш эмас, балки қад ростлаётган иншоотларнинг замонавий шаҳарсозлик талаблари, амалдаги меъёрларга мос даражада бўлишини таъминлашга қаратилган.

**Ўз мухбиримиз.**

МУЛОҲАЗА

# "City" номларининг кўпайиши ўзбек тилига ҳурматсизлик эмасми?




**Улуғбек ИБОДИНОВ,** журналист.

**"City" атамаси луғатимизга кириб келганига кўп бўлгани йўқ. Аммо бу сўз тезда тилимизга сингиб кетди. "City" деганда, биз янгича услубда қурилаётган осмонўпар бинолар ансамбли, атрофда боғлар ва қулай инфратузилмани тушуняпмиз. Аслида эса, инглиз тилида "City" – "катта шаҳар" ёки "қаъла" деган маъноларни англатади. Сўзнинг асл маъноси-ку, майли, ҳар қандай сўз вақтлар ўтиши билан турли талқинларда ишлатилиши, ифодалаётган ҳодисаси ўзгариб бориши мумкин. Аммо қураётган комплексларга шу сўзни тиқиштиришимиз шартмикан?**

Илгари йирик шаҳарлар таркибида "шаҳарча" – "городок" деган тушунча бўларди. Бу инглиз тилида "town" сўзига тўғри келса керак. Масалан, Тошкентда "Тиббиётчилар шаҳарчаси", "Авиасозлар шаҳарчаси", "Ишчилар шаҳарчаси" ва ҳоказолар бор эди. Ўша ҳудудлар халқ тилида ҳамон аввалгидек аталади. Бу тажриба мутахассисларнинг иш жойларига яқин бўлиши, ўзига хос инфратузилма, ишчан муҳитни яратиш учун амалга оширилган. Бу ҳам аслида янгилик эмас. Қадим-қадимдан шаҳарларда маълум касб эгаларигина яшайдиган маҳаллалар бўлган. Масалан, сандиқчилар, темирчилар, қўнчилар, заргарлар маҳаллалари ва ҳоказо. Аммо хусусийлаштириш даврларида уйлар қўлдан-қўлга ўтиб, шаҳарчалар ўз моҳиятини йўқотди. "City"ларга ҳам шунга ўхшаш бир лойиҳа сифатида баҳо бериш мумкин. Фақат бу жойларда энди маълум мутахассислар гуруҳи эмас, маълум даражада пул орттирганлар тўпланади.

Бу ўринда, "City" сўзининг ўзбекча шаклидан фойдаланилса нима бўлади, деган савол туғилади. Масалан, "Tashkent city" ва "Olmazor city" дегандан кўра, бирор ўзбекча ном топилса. "Akay city" деганини-ку, таржима қилишга ҳам қийналасан киши. Чунки "Akay" дегани туркча бўлиб, "оқ ой" дегани. Бу сўз қўшилмаси қадимги турк ва инглиз тилларининг чатишмасидан ҳосил бўлган. Шу ўринда мазкур ном ҳақида яна бир фикрим бор. Буюк бобокалонимиз Амир Темурнинг дунёдаги энг машҳур шаҳарлар номини яхши ниятда юртимиздаги қишлоқларга қўйиш одати бўлган. Шу йўсинда Фориш, Бағдод қишлоқлари вужудга келиб, катта туманларга айланиб кетди. Аммо бугун қурилаётган "Akay city" қўшни Қозоғистондаги бир қишлоқнинг номи эканига нима дейсиз? Яхши ниятларда қурилаётган бу мажмуага бошқа ном қуриб кетганмиди?

Яна бир мажмуа эса негадир "London" деб аталади. Ҳақиқий Лондон шаҳри маркази "London city" деб номлангани боис биздагисига "city"ни қўшишмаган, чоғи. Аммо Британиядаги "London city" шаҳарнинг тарихий марказидир. Ҳудуд илгаридан шаҳарнинг арки бўлиб келган. Худди шундай, "Alfraganus" – пойтахтда буюк бобокалонимиз ал-Фарғоний шарафига қурилаётган мажмуа. Аммо нега бобомизнинг европача бузиб талаффуз қилинадиган тахаллусидан фойдаланилганига ақлинг етмайди.

Энди янада ғалатироқ масалаларга ўтамиз. Пойтахтимизда "Minerva city" деб номланган бошқа бир мажмуа ҳам бор. Албатта, жарангдор ном. Аммо бу нима дегани? Минерва – қадимий Рим санамларидан биридир. Римликлар бу илоҳа шарафига бағишланган байрам – Квинкватрида катта гладиаторлик ўйинлари ташкиллаштириб, одамларни қурбонлик қилишган. Рим шаҳри марказида Минерва ибодатхонаси бўлиб, "Минервага бормоқ" дегани маъжусий санамга ибодат қилишга боришни англатган. Яқинда – бу турар жой мажмуаси битганидан сўнг биз ҳам шу сўз бирикмасини ишлата бошлаймиз...

"Dream city" – Орзулар шаҳри дегани. Чиройли ном. Хўп, шуни "Орзулар шаҳри" деб қўя қолсак, асакамиз кетадими? Ёки ўзбекчаси хунук жаранглайдими?

Бу гапларни нимага айтяпман. Кейинги пайтларда "бренд" учун инглизча сўзлардан фойдаланиш урфга кирди. Балки қурувчи компаниялар шундай номланса, савдо юришади, деб ҳисоблашар. Аммо тилимиз шусиз ҳам бошқа тиллар экспанциясидан анча жабр кўрган. Масалан, илгарироқ оммавий ахборот воситаларида бозордаги сотувчи маҳсулоти тепасига "Высший сорт чеснок бор", деб эълон осгани тўғрисида ўқигандик. Бутун бир жумлада фақат "бор" деган ўзбекча сўз ишлатилган. Энди ўзбек тилини ҳимоялаш тўғрисида қатор қарору фармонлар чиқариб, уни бир тил хуружидан бошқасига топшириш мантиқдан бўлмаса керак. Қани бу ерда "Давлат тили ҳақида"ги қонунга ҳурмат? Ачинарлиси, бу ишлар расмий равишда амалга оширилмоқда.

Яъни, барча расмий ҳужжатларда ҳам инглизча атамалар ишлатиляпти. Бундан ташқари, "city"га айланган деярли барча жойларнинг ўзининг миллий тарихий номлари бор. Масалан, "Tashkent city" қадимги "Ўқчи" маҳалласи ўрнида барпо этилди. Маҳалла аҳолиси Қўқон араваси ўқини ясаш билан шуғулланиб келгани учун шу номни олганди. Жилла қурса, шулардан фойдалангани маъқул эмасмиди?

Бундан ташқари, "city" сўзининг ўзбекча муқобиллари ҳам йўқ эмас. Масалан, "Шаҳристон", "арк" тушунчалари шунга мос келса керак. "Tashkent city" ўрнига "Ўқчи арки" ёки "Ўқчи шаҳристони", "Олмазор шаҳристони", "Наманган арки" каби ибораларни ишлатсак ҳам бўлади. Шу ўринда, 20 йиллар илгари "Фарғона ҳақиқати" газетасида босилган марҳум халқ шоири Охунжон Ҳакимовнинг "Алишерка ким?" сарлавҳали мақоласи ёдимга тушди. Шоир Фарғона шаҳри марказидаги Алишер Навоий номидаги кинотеатрни ёшлар "Алишерка", деб аташларини танқид қилганди. Бу буюк бобокалонимизга нисбатан ҳурматсизлик эканини қаттиқ куюниб ёзган эди. Буни-ку, ёшларнинг ўзига хос эркалиги, деб баҳолашимиз мумкиндир. Аммо бугун биз тарихий жойларимиз номини битта қурилиш баҳонаси билан маъжусий санамлар номига расмий равишда алмаштиряпмиз.

Тўғри, "city"лар қуриш бутун собиқ иттифоқ давлатларида урфга кирди. "Москва Сити", "Грозный-Сити" ва ҳоказо. Аммо кимдир томдан ташласа, бу биз ҳам ташлашимиз керак, дегани эмас. Осмонўпар бинолар янги Ўзбекистоннинг рамзларидан биридир. Рамзларнинг номи эса миллий бўлгани маъқул.

Хўш, тилимизнинг ҳимояси билан шуғулланиши лозим бўлган ташкилотлар – Ўзбек тили ва адабиёти университети, барча вазир, йирик амалдорларнинг тил бўйича маслаҳатчилари, кирилл ёки лотин алифбоси бўйича тинмай чиқишлар қилаётган олиму фозиллар нега бу масалага эътибор қаратишмаяптми? Кўришмаяптими, билишмаяптими? Жуда яхши кўриб турибди, билиб турибди. Аммо мум тишлашган. Нега?.. Нега ҳуқуқ органлари ўзбек тили ҳимоясига бағишланган ҳужжатлар талабини таъминлашга шошилмаяпти? Ахир, тарихий жойларимиз номини қанақадир тушунарсиз атамалар билан алмаштириб ташлаш, ал-Фарғонийдек боболаримиз номининг бузилган талаффузидан фойдаланиш тарихимизга тўғридан-тўғри хуруж эмасми?

# Ҳудудларни сувлаштириш кўлами янада ортди

**Зиё СИРОЖ,** "O‘zbekiston bunyodkori" мухбири.

**Аслини олганда, "Андижон сув таъминоти" МЧЖ учун ҳар бир йил қизғин жараёнларга бой кечади. Жумладан, 2022 йилда ҳам ҳудудларни сувлаштириш, аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш, истеъмолчиларга оқова сув хизматини кўрсатиш соҳасида бир қанча ишлар амалга оширилдики, бунинг натижасида аҳоли турмуш шароити яхшиланиб, ҳудудларнинг сувлашганлик даражаси ортди.**



Хусусан, барча манбаалар ҳисобидан 258 млрд сўм маблағ эвазига 725,9 километр ичимлик ва 23,3 километр оқава сув тармоғи, 124 дона сув қудуғи, 16 дона ичимлик ва 4 дона оқава сув тозалаш иншоотини қуриш ҳамда реконструкция қилиш режалаштирилган эди. Шу кунгача 626,7 километр ичимлик сув тармоғи, 27,5 километр оқава сув тармоғи, 6 дона ичимлик ва 2 дона оқава сув иншооти ҳамда 78 дона сув қудуғини қуриш ишлари амалга оширилди. Бу каби фаолият турини ташкил этишда, энг аввало, Инвестиция дастури доирасидаги лойиҳаларнинг аҳамияти катта бўлмоқда. Бунинг натижасида 32,2 млрд сўмлик 110 километр ичимлик сув тармоғи, 23,3 километр оқава сув тармоғи, 1 дона ичимлик ва 2 дона оқава сув иншооти ҳамда 8 дона сув қудуғида бунёдкорлик ва реконструкция ишлари бажарилди.

Тан олиш керак, вилоятнинг айрим ҳудудларида узоқ йиллар давомида тоза ичимлик суви таъминотида ўзига хос муаммолар мавжуд эди. Аксарият аҳоли сувни узоқ масофадан ташиб келишига тўғри келган бўлса, айрим истеъмолчиларга сув ташувчи махсус транспорт воситалари орқали хизмат кўрсатилган.

– Ортда қолган давр бу каби муаммоларни ҳам тарих саҳифаларига муҳрлади, – деди "Андижон сув таъминоти" МЧЖ директори Шуҳратбек Матмусаев. – Бу борада "Обод қишлоқ" ва "Обод маҳалла" давлат дастурларининг ўрни беқиёс. Дастурлар ижросини таъминлаш доирасида 55,5 млрд сўмлик 204 километр ичимлик сув тармоғи ва 22 дона сув қудуғи қурилди. Мисол учун, Андижон туманидаги "Садда таги" МФЙни олайлик. Ушбу маҳаллада қарийб 30 йил давомида сув таъминотида узилишлар юзага келган. "Обод қишлоқ" давлат дастури доирасида манзилда 11,9 километр сув тармоғи тортилиб, ҳар бир хонадонга сув жўмраклари ўрнатилди. Марҳамат туманидаги "Бирлик" МФЙда эса 2 900 нафар аҳоли истиқомат қилади. Уларнинг тоза ичимлик суви билан боғлиқ муаммоларини бартараф этиш мақсадида 5 километр ичимлик сув тармоғи тортилиб, битта сув минораси қуриб, битказилди. Мавжуд 5 та кўчада истиқомат қилувчи аҳолининг "оби ҳаёт" билан боғлиқ ташвишлари шу тариқа барҳам топди.

Андижон вилоятида "Аср лойиҳаси" дея аталмиш катта бунёдкорлик жараёни давом этмоқда. Яъни, "Янги Андижон" шаҳарчаси барпо этиляпти. Ҳудудни сувлаштириш ишларида табиийки, "Андижон сув таъминоти" МЧЖ ҳам фаол иштирок этмоқда. Шу кунгача 35,1 млрд сўмлик 20 километр ичимлик сув тармоғи, 1 дона ичимлик сув иншооти ва 15 дона сув қудуғи қурилганлиги бунга мисолдир.

Вилоятда ҳудудларни сувлаштириш мавзусида сўз юритилганида, вилоят ҳокими ташаббуси билан амалга оширилаётган ишлар ҳақида фикр юритиш ўринлидир. Хусусан, 72 та шароити нисбатан оғир маҳаллаларни комплекс ривожлантириш ишлари давом этмоқда. 5 млрд сўмлик 52 километр ичимлик сув тармоғи ва 5 дона сув қудуғи қурилиб, мавжудларида таъмирлаш ишлари бажарилди.

Юқорида баён этилган ишларни амалга ошириш натижасида 65 минг нафардан ортиқ аҳоли илк бор ичимлик суви билан таъминланди, 88 минг нафар аҳолининг ичимлик суви таъминоти яхшиланди. Бу борадаги ишлар жойларда давом этмоқда. Демак, тилга олинган ишлар кўлами ва кўрсаткичлар сони жорий йилда янада ортади. Энг муҳими, аҳоли турмуш шароити яхшиланиб, тоза ичимлик сувига бўлган эҳтиёж қондирилади.

## Туғилган кунингиз муборак бўлсин!

### Январь ойининг шу кунларида таваллуд айёмларини нишонлаётган

Ўзбекистон Республикаси Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги раҳбар котибаси **Эльвира Денушова,**

"Қишлоққурилишлойиҳа" МЧЖ Бош режаларни ишлаб чиқиш ва ҳудудларнинг меъморий-режавий ташкиллаштириш бўлими бошлиғи **Ҳаёт Мирзоев,**

"Тошгипрогор" АЖ 2-сонли архитектура-қурилиш сектори раҳбари (ГАП) **Маргарита Туниева,** муҳандислик гуруҳи раҳбари **Арина Ким,** автоматлаштириш ва лойиҳаларни ишлаб чиқариш бўлими иқтисодчиси **Екатерина Ковач,**

Қорақалпоғистон Республикаси Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги шаҳарсозлик қонунчилигига риоя этилиши назорати бўйича архитектори **Шерзод Джумабаев,**

Навоий вилояти Қурилишда танлов савдолари ва нархларни шакллантириш ҳудудий консалтинг маркази етакчи мутахассиси **Меҳриддин Бозоров,**

Тошкент вилояти, Бўка тумани қурилиш бўлими шаҳарсозлик қонунчилигига риоя этилиши назорати бўйича архитектори **Ҳусниддин Шаҳобиддинов,**

Тошкент шаҳар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармаси бош ҳисобчиси **Нигора Мажитова,**

Фарғона вилояти Қурилишда танлов савдоларини ташкил этиш консалтинг маркази бўлим бошлиғи **Ирина Саидова,**

Хоразм вилояти, Хонқа тумани қурилиш бўлими шаҳарсозлик қонунчилигига риоя этилиши назорати бўйича архитектори **Жамшид Салаев,** Янгиариқ тумани қурилиш бўлими бошлиғи – туман бош архитектори **Руслан Жуманиёзов**ларни таваллуд куни билан чин дилдан муборакбод этамиз.

**Уларга сиҳат-саломатлик, узоқ умр, оилавий хотиржамлик, мустаҳкам соғлиқ тилаймиз!**

O‘ZBEKISTON BUNYODKORI
СТРОИТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА
№3 (656) 2023-yil 17-yanvar

# FIDIC shartnomalari bo‘yicha nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmining samaradorligi

# GRUZIYA TAJRIBASI

**O‘zbekiston Muhandislar-konsultantlar uyushmasi mahalliy va xorijiy hamkorlar bilan birgalikda respublikada muhandislik xizmatlari bozorini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirib kelmoqda. Bu strategiya markazida loyiha va qurilish sohasi xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, respublikada investitsiya loyihalarini amalga oshirishda muhandislik ishlarini bajarish, konsalting xizmatlarini ko‘rsatishning ilg‘or texnologiyalari hamda usullaridan foydalanadigan mohir mutaxassislar sonini ko‘paytirish, ular orttirgan malakasini sertifikatlash yo‘li bilan tasdiqlash vazifasi turibdi.**

Shu bilan birga, ushbu strategiyani amalga oshirishning eng muhim bosqichlaridan biri Muhandis-konsultantlar milliy reyestrini shakllantirish bilan bir qatorda Nizolarni hal qilish kengashi a’zolarining ro‘yxatini tuzishdan iborat. Ularning funksiya va vazifalari FIDIC shartnomalariga kiritib qo‘yilgan.

Ta’kidlash lozimki, 2022-yilning iyun oyida O‘zbekiston Muhandislar-konsultantlar uyushmasi FIDIC xalqaro shartnomalari bo‘yicha bir qator o‘quv kurslarini o‘tkazdi, unda kitoblarning 2017-yilda chiqqan yangi variantiga kiritilgan o‘zgartirishlar 1999-yildagi ilk variant bilan taqqoslagan holda ko‘rib chiqildi. So‘nggi variantga (2017-yil) juda ko‘p o‘zgartirishlar kiritilganligi va kitob hajmi deyarli ikki baravarga oshib ketganligi sababli o‘zgarishlarni alohida bo‘limlarda ko‘rib chiqish yaxshiroqdir.

2017-yilda eng katta o‘zgarishlarga uchragan bo‘lim – FIDIC shartnomalari bo‘yicha yuzaga kelgan nizolarni sudgacha hal qilish masalasini ko‘rib chiqishni taklif qilamiz. Buning uchun yana bir bor FIDICning Oltin tamoyillariga kiritilgan fundamental beshta tamoyilga murojaat qilaylik. Ulardan biri – Nizolarni hal qilish kengashi (1999-yil versiyasi) yoki Nizolarning oldini olish kengashi (2017-yil versiyasi) deb atalmish Kengashning qurilish loyihalarida majburiy tarzda ishtirok etishidir. Kengash nomidan ko‘rinib turibdiki, 1999 va 2017-yilgi konsepsiyalar bir biridan tubdan farq qiladi, chunki endilikda, 2017-yilgi versiyada “nizolarning oldini olish” strategiyasi qo‘llanilmoqda. Vaholanki avvalgi versiyada “nizolarni hal qilish” so‘zlari ishlatilgan. 2017-yilgi variantda Kengash “standing” deb nomlanadigan shartnoma tuzilayotganda tayinlanadi, bu esa o‘z-o‘zidan unga “nizolarning oldini olish” missiyasi yuklanishini anglatadi.

O‘quv kurslari doirasida o‘tkazilgan “Nizolarning oldini olish kengashlarini tushunish” (“Understanding DAB‘s”|) deb nomlangan 3-modulning mavzusi 2022-yilda O‘zbekiston talabalari uchun ayniqsa dolzarb bo‘ldi. Chunki hozirgi kunda respublikada qurilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish ishlari faol olib borilmoqda. Nizolarni hal qilish texnologiyasini joriy qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun Nizolar kengashi (Dispute Board) turli xil konfiguratsiyalarda faol qo‘llanilayotgan Gruziya tajribasiga murojaat qilaylik.

Gruziya Muhandis-konsultantlar uyushmasi (ACEG) Prezidenti (http://www.aceg.ge/president) va Nizolar bo‘yicha sudyalarning FIDIC Prezidenti tasdiqlagan ro‘yxati a’zosi (https://fidic.org/fidic-president-details/74307) Irakli XERGIANI bizga Gruziya tajribasi haqida so‘zlab berdi.

**– Xayrli kun, Irakli! Suhbatimizda ishtirok etishga rozilik bildirganingiz uchun tashakkur. Ayting-chi, FIDIC shartnomalari Gruziyada qaysi yildan boshlab qo‘llanila boshlandi?**

– Esimda, birinchi yirik FIDIC shartnomasi 2005-yilda JICA tomonidan moliyalashtirilgan loyiha doirasida imzolangan.



2006-2007-yillarda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va shu kabi boshqa xalqaro moliya institutlari ishtirokida infratuzilmaviy loyihalarni faol rivojlantirish boshlandi. Shu bilan birga, qayd etib o‘tish joizki, bundan oldin ham miqyosi kichikroq shartnomalar amalga oshirilgan edi.

**– Avval boshda FIDIC shartnomalarining mazmun-mohiyati O‘zbekistonda unchalik anglab yetilmagan edi. Shu ma’noda, mamlakatingizda bunday shartnomalarni qo‘llash mexanizmining shakllanishi qay yo‘sinda amalga oshdi?**

– Dastlab bizda ham shunday edi. Pudratchilar, asosan tenderlarda g‘olib bo‘lgan xususiy kompaniyalar ancha tajribali bo‘lib turgan bir paytda Buyurtmachilar shartnomani hali unchalik yaxshi tushunmas, oqibatda juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishar edi. Shu bilan birga, Buyurtmachi, odatda, o‘z obro‘si va nufuzi bilan “bosim o‘tkazardi”. Va natijada shunday kun keldiki, Arbitraj Pudratchi foydasiga qaror chiqarib, Buyurtmachi jarima to‘lashga majbur bo‘ldi.

**– O‘sha paytlarda shartnomalarda Nizolar kengashidan foydalanilarmidi?**

– Yo‘q, asosan foydalanilmasdi, chunki Nizolar kengashi g‘oyasini hech kim tushunmasdi. Buyurtmachi Muhandis bilan shartnoma imzolaganligi sababli, Buyurtmachi Muhandisga talablar qo‘yar edi. Hatto shunday bo‘lardiki, Buyurtmachi nima bo‘layotgani bilan qiziqmasdi ham.

**– Bugungi kunda post-sovet hududida Gruziya FIDIC shartnomalarini qo‘llashda ancha ilgarilab ketdi. Vaziyat qachon va qay tarzda yaxshi tomonga o‘zgara boshlaganini aytib bering.**

– Bu yerda men 2010-yildan 2017-yilgacha Gruziya Mintaqaviy rivojlanish va infratuzilma vazirligi huzuridagi Yo‘l departamentida (Roads Department of the Ministry of Regional Development and Infrastructure of Georgia) Buyurtmachi tomonidan amalga oshirgan ish tajribam haqida so‘zlab beraman. O‘sha paytda biz juda tajribali Pudratchiga duch kelgan edik va Buyurtmachining vakillari sifatida bilimsizligimiz tufayli nafaqat loyihani amalga oshirish ishlarini kechiktirishimiz, balki jarima ko‘rinishidagi jazo choralariga duchor bo‘lishimiz mumkinligini juda yaxshi tushunardik. Shu bois, 2010-yilda biz ilk bor FIDIC Prezidenti ro‘yxatidan Nizolar kengashini ishga yolladik. Shuni ta’kidlashim kerakki, aynan o‘shanda bunday mutaxassislarning ahamiyatini anglab yetdik. Loyihaning qiymati taxminan 30 million dollarni tashkil etgan edi. Loyiha 2 yil davom etib, muvaffaqiyatli yakunlandi. Shu davrda Buyurtmachi Nizolar kengashi uchun jami 48 000 dollar, har oyda 2 000 dollardan to‘lab turdi. Xuddi shunday summani Pudratchi ham to‘lab bordi. Shu bilan birga, Buyurtmachi pulni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki Pudratchi orqali to‘lab borishi mumkin edi va bu summani oraliq sertifikat summasidan (bajarilgan ishlarning har oylik dalolatnomasi summasidan) undirib bordi.

Xalqaro yuridik firmalar bunday summani faqat bitta da’voni tayyorlab berish uchungina oladilar. Ana endi, o‘zingiz bir hisoblab ko‘ring. Masalan, yuristning bir soatlik ishining narxi 350-400 dollarni tashkil qiladi. Odatda da’voni tayyorlash uchun kamida ikki hafta vaqt ketadi. Natijada hammasi bo‘lib, taxminan, 39-45 ming AQSH dollariga aylanadi. Nizolar kengashining vazifasi esa nizolarning oldini olishdir. Qarang, Nizolar kengashi har kuni loyiha bo‘yicha barcha ma’lumotlarni – barcha hisobotlar, yozishmalarni, agar kerak bo‘lsa, foto va video-fayllarni olib turadi. Va, shunday qilib, har doim “On Board” (uzluksiz jarayon) holatida bo‘ladi. Tajribali mutaxassis xavfli nuqtalarni oldindan ko‘rishi va ziddiyatli vaziyatlarning oldini olishi mumkin. Shartnomalar shartlariga ko‘ra, Nizolar kengashi kitobning 1999/2017-yilgi variantiga qarab 48/84 kun ichida qaror qabul qilishi kerak. Bunday muddat hujjatlarni o‘rganib chiqishga vaqt ajratish uchun belgilangan. Biroq, agar Nizolar kengashi, yuqorida aytganimdek, “On Board” holatida, ya’ni, uzluksiz jarayonda bo‘lsa, u holda unga hujjatlarni o‘rganib chiqish uchun vaqt kerak bo‘lmaydi. Qo‘shimcha vaqt faqat tomonlar qo‘shimcha taqdim etgan hujjatlarni o‘rganib chiqish uchun zarur bo‘ladi, xolos.

Misol uchun, qo‘shimcha ekspertiza xulosalari, biron-bir sinov natijalari yoki shunga o‘xshash boshqa qo‘shimcha hujjatlar. Amalda, agar ancha murakkab vaziyat yuzaga kelgan bo‘lsa, doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi Nizolar kengashi o‘z qarorlarini 20-25 kun ichida qabul qiladi. Shunday qilib, qaror qabul qilish vaqti sezilarli darajada qisqaradi va, natijada, loyihani kechiktirish xavfi kamayadi.

**– Gruziyada Nizolar kengashi qarorlarini amalga oshirish masalasi qanday hal qilingan? Masalan, mamlakatimizda loyiha qiymatini Prezident yoki Hukumat tasdiqlaydi. Va, ayonki, uni o‘zgartirish uchun xuddi shunday yo‘l tutilishi kerak. Tushunarliki, bunda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu bilan birga, Pudratchilarning mantig‘iga ko‘ra, moliyaviy xatarlarni loyiha qiymatiga kiritishni taqazo etadi. Bu esa ba’zi hollarda loyiha narxining oshishiga olib kelishi mumkin. Gruziya qonunchiligi bu borada qanchalik moslashuvchan?**

– Ha, Gruziya qonunchiligida ham qat’iy talablar o‘rnatilgan. Sizga vaziyatdan qanday chiqqanimizni so‘zlab beraman. O‘sha vaqtlarda, 2010-yildan boshlab, xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda “Institutional Strengthening” (Institutsional mustahkamlash, davlatlar tomonidan xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda muayyan sohalarni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqiladi) doirasida biz Nizolar kengashi qarorlarini amalga oshirish muammosini o‘rganishni boshladik. Shunday vaziyat yuzaga keldiki, Nizolar kengashi Pudratchi foydasiga qaror chiqardi, Buyurtmachi Arbitraj ham xuddi shunday qaror qabul qilishini va xarajatlar ancha oshib ketishini tushunardi. Shunda Buyurtmachi Muhandislar va Yuridik kompaniya vakilidan iborat 3 kishilik Ekspertlar guruhini tuzdi. Ekspertlar guruhi nizo materiallarini o‘rganib chiqib, “Opinion” deb nomlanadigan ekspert xulosasini berdi. Buyurtmachi ushbu Ekspert xulosasi va Nizolar kengashining qarori bilan Vazirlar Mahkamasiga murojaat qildi. Vazirlar Mahkamasi bir hafta ichida o‘z Qarorini chiqardi.

**– Bunday vaziyatda Vazirlar Mahkamasi bir hafta ichida qaror chiqara oladigan darajada juda harakatchan va moslashuvchan bo‘lishi kerak.**

– Ha, to‘g‘ri. Gruziyada xuddi shunday bo‘lgan. Va bu mexanizm o‘zining juda samarali ekanligini ko‘rsatdi. O‘shanda biz anchagina tajribali bo‘lib qolgan edik va Nizolar kengashi o‘z qarorlarini Buyurtmachining foydasiga chiqara boshlagan edi. Biz uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligining namoyon bo‘lish nuqtasi Buyurtmachining Arbitraj jarayonida yutib chiqqani bo‘ldi.

**– Undan keyin Ekspert guruhlari doimiy ravishda tuzilganmi?**

– Keyinchalik, albatta, Buyurtmachining auditorlarida bunday ekspert xulosalarini moliyalashtirish muammosi ko‘tarilib turgan. Bunday muammolarni bartaraf qilish uchun xarid qoidalariga o‘zgartishlar kiritish kerak edi. Biz juda faol rivojlanib bordik. Hozir sizlarda bo‘lgani kabi, o‘shanda Gruziyada ham bir necha sohalarni – buyurtmachi vakillarini o‘qitishdan tortib, qonunchilikni o‘zgartirishgacha bo‘lgan yo‘nalishlarni qamrab olish kerak edi. Buyurtmachi xodimlarini o‘qitish unchalik samara bermadi, chunki kadrlar qo‘nimsizligi tufayli xodimlar o‘zgarib turar edi. Buyurtmachining yuristlari, odatda, FIDIC shartnomalarining barcha o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq bilishmasdi va to‘liq stavkada ham ishlashmasdi. Biz shtatdan tashqari, ya’ni, mustaqil ekspertlardan foydalanish ancha samaraliroq, degan xulosaga keldik. Buyurtmachiga loyihani kuzatib borish uchun alohida mablag‘ ajratiladigan bo‘ldi. Buyurtmachi alohida bir mutaxassis bilan, aksariyat hollarda esa ixtisoslashgan bir konsalting kompaniyasi bilan loyihani muntazam ravishda, oyma-oy kuzatib borish to‘g‘risida shartnoma tuzadigan bo‘ldi. Loyihani kuzatib borish xizmatining o‘rtacha qiymati oyiga taxminan 1500 dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, xizmatlarning bunday narxi yirik bir loyiha uchun unchalik katta emas. Bu xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar Xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilishiga kelishib oldik.

**– Qiziq, mutaxassislar qay tarzda izlab topilgan? Ya’ni, ixtisoslashgan ma’lumotlar bazalari bormidi?**

– Yo‘q, odatda, faqat sarafan radiosi, ya’ni og‘izdan-og‘izga o‘tib yuradigan axborot orqali. Mamlakatimiz kichkina va, albatta, manfaatlar to‘qnashuvidan qochib qutilishning hech iloji yo‘q edi.

**– Gruziyada hozircha Nizolarni hal etish bo‘yicha ekspertlarning milliy ro‘yxati mavjud emas, ammo xalqaro darajadagi ekspertlar ko‘p. Albatta, ekspertlarning haqiqiy reytinglariga, manfaatlar toqnashuviga oid oz qoidalariga ega bolgan bunday ro‘yxat O‘zbekiston uchun ham zarur. Chunki, bizda loyihalar juda kop, lekin mahalliy mutaxassislar kam. Bozor jadal rivojlanib bormoqda va bu vaziyatda Uyushma FIDIC mutaxassislarini birlashtirishi va qollab-quvvatlashi, ularni atrofdagilarga namoyon qilishi va bu bilan ularga xalqaro bozorlarga chiqishlari uchun imkoniyat yaratib berishi ayni togri ish bolar edi.**

– Bu juda yaxshi fikr. Birinchidan, aniq malaka va tajribaga ega mutaxassislar togrisidagi ma’lumotlar bazasini ochiq foydalanish uchun yaratish mumkin. Mutaxassisning asosiy fazilatlaridan biri bu xolislikdir, shuning uchun, agar malumotlar bazasida ekspertninng ish tajribasi korsatilsa, u holda darhol manfaatlar toqnashuviga oid masalalarni baholash hamda ekspertning kasbiy va axloqiy obrosini aks ettiruvchi reyting bilan tanishib chiqish mumkin boladi. O‘tgan yili hamkasblarim singari, FIDIC Prezidenti royxatiga (President’s List of Approved Dispute Adjudicators) kirish uchun imtihon topshirdim. Bu ancha murakkab imtihon bolib, undan otish uchun barcha FIDIC kitoblari bo‘yicha yuqori amaliy va nazariy bilimlarga ega bo‘lish zarur. Shuning uchun ekspertlar ro‘yxati unchalik ham katta emas. Kichik loyihalar uchun Milliy ro'yxatdagi mutaxassislarni yollash mantiqan togridir. Agar Ozbekiston Muhandislar-konsultanlar uyushmasi shunday ro‘yxatni tuzadiganl bolsa, ushbu ro‘yxatning bir qismiga aylanishimni ozim uchun sharaf deb bilaman. Axir, Ozbekistonda kop vaqtdan beri ishlab kelmoqdaman va bu mening reytingim ancha yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu sohada men O‘zbekiston kelajagida katta istiqbollarni ko‘rmoqdaman.

**– Irakli, qiziqarli intervyu uchun tashakkur. Kelgusida yaqindan hamkorlik qilishimizdan umidvormiz.**

*Qo‘shimcha sifatida ma’lum qilamizki, agar siz xalqaro bozorga muhandis-konsultant, xalqaro qurilish shartnomalari bo‘yicha mutaxassis, qurilish loyihasi menejeri sifatida chiqishni rejalashtirayotgan bo‘lsangiz, u holda bizning dasturimizga qo‘shiling. Endi FIDIC oquv modullari avvalgidek tez-tez takrorlanib turmaydi, shuning uchun biz bilan malaka oshirishni imkon qadar tezroq boshlang. Bu yilni biz “O‘zbekistonda qurilish loyihalarini xalqaro standartlar bo‘yicha boshqarish” deb nomlangan yangi bazaviy ekspress trening bilan boshlaymiz. Ushbu trening 19-20-yanvar kunlari boshlanadi.*

*Kursimiz trenerlari xalqaro qurilish loyihalarida 6 yildan ortiq ish tajribasiga ega bolgan mahalliy mutaxassislar – muhandislar, yuristlar va loyiha menejerlaridir. Ro‘yxatdan otish uchun O‘zbekiston Muhandislar-konsultantlar uyushmasini telegram kanaliga kiring.*

*Shuningdek, keyingi bosqichda, 1-3-fevral kunlari biz FIDIC Prezidenti royxatidagi trenerlar – Irakli Xergiani, Nina Tsaturova va Taner Dedezadelar ishtirokida “FIDIC Module 1” treningini tashkil qilamiz. Treningda ishtirok etish natijalariga kora, FIDIC Xalqaro muhandis-konsultantlar federatsiyasining xalqaro sertifikati beriladi. Ro‘yxatdan otish uchun O‘zbekiston Muhandislar-konsultantlar uyushmasini telegram kanaliga kiring.*

**Suhbatni O‘zbekiston Muhandislar-konsultantlar uyushmasi direktori. Larisa BELOUSOVA olib bordi.**

### GRUZIYA MUHANDIS-KONSULTANTLAR UYUSHMASI HAQIDA STATISTIK MA’LUMOTLAR:

- Gruziya Muhandis-konsultantlar uyushmasi hozirgi kunda nechta a’zoga ega?
- 50 dan ortiq. Ular orasida Injiniring kompaniyalari ham, xususiy muhandis-konsultanlar ham bor. Shuningdek, Uyushma faoliyatidan manfaatdor bo‘lgan assotsiatsiyalangan shaxslar ham Uyushma ishida ishtirok etadi.
- Qancha kompaniya oz shartnomalarida Nizolar kengashidan foydalanadi? Qurilish shartnomalari bo‘yicha Arbitrajga qancha ariza berilgan? Yillar kesimida statistik ma’lumotlar bormi?
- 2 yil oldin Gruziyadagi loyihalarning katta qismini moliyalashtiradigan 5 ta Xalqaro moliya instituti bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ilgan edi. Shu davrda jami 25 ta Nizolar kengashi ishlagan. Ko‘rsatib otilgan loyihalarni amalga oshirish jarayonida Arbitrajga 3 marta murojaat qilingan. 2022-yilda (2 yildan keyin!) 3 ta arbitraj ishining barchasi boyicha qarorlar chiqqan.
- Necha holatda Arbitraj Nizolar kengashi bilan bir xil qaror qabul qilgan?
- Uchala holatda ham Arbitraj Nizolar kengashi qaroriga rozilik bildirgan.

ENGINE
CLEANTECH LATVIA — FUTURE TECHNOLOGIES INSPIRED BY NATURE
UZACE — АССОЦИАЦИЯ ИНЖЕНЕРОВ-КОНСУЛЬТАНТОВ УЗБЕКИСТАНА
АКСА — АССОЦИАЦИЯ «КАЗАХСТАН СУ АРНАСЫ»
FUNDED BY THE EUROPEAN UNION — CENTRAL ASIA INVEST

IJTIMOIY-IQTISODIY GAZETA
O‘ZBEKISTON BUNYODKORI
СТРОИТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

Батир Закиров (Таҳрир ҳайъати раиси), Шерзод Ҳидоятов, Давронжон Адилов, Шукруллобек Жаҳонгиров, Козим Туляганов, Юлдаш Магрупов, Жамшид Исмаилов, Бобир Элмуродов, Қудратбек Хошимбеков.

**ТАҲРИРИЯТ:**

Бош муҳаррир **Дилшод Жалолов**
Бош муҳаррир ўринбосари **Абдусами Ҳақбердиев**
Саҳифаловчи **Акмал Махкамов**
Мусаҳҳиҳ **Марҳамат Мусулмонқулова**

**Газета «Ўзбекистон бунёдкори» Нашриёт уйи МЧЖ томонидан нашрга тайёрланди.**

**«ЎЗБЕКИСТОН БУНЁДКОРИ» НАШРИЁТ УЙИ МЧЖ МУАССИСЛАРИ:**

Ўзбекистон Республикаси Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, «Ўзсаноатқурилишматериаллари» уюшмаси, «ЎзГАШКЛИТИ» ДУК, «ЎзшаҳарсозликЛИТИ» ДУК, «Қишлоқ қурилиш инвест» ИК МЧЖ, «ЎзгеорангметЛИТИ» ДУК.

**ТАҲРИРИЯТ МАНЗИЛИ:**

100035, Тошкент шаҳри, Ниёзбек йўли кўчаси, 1-уй.
**Телефонлар:**
71-234-47-18 (қабулхона),
71-234-47-19 (таҳририят),
71-234-47-20 (бухгалтерия),
71-208-12-00 (реклама ва обуна бўлими).
**E-mail:** info@uzbunyodkor.uz

**ВИЛОЯТ МУХБИРЛАРИ ТЕЛЕФОН РАҚАМЛАРИ:**

**Қорақалпоғистон Республикаси:** 90-590-37-15.
**Андижон вилояти:** 93-410-15-18.
**Бухоро вилояти:** 99-705-50-15
**Жиззах вилояти:** 99-525-30-05.
**Навоий вилояти:** 99-731-17-40.
**Наманган вилояти:** 90-553-02-34.
**Самарқанд вилояти:** 95-560-30-45.
**Сурхондарё вилояти:** 91-981-61-63.
**Фарғона вилояти:** 90-230-85-23, 90-163-63-82.
**Қашқадарё вилояти:** 99-503-43-39.
**Хоразм вилояти:** 97-459-74-85.

Газета 2016 йил 25 июлда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0874-рақам билан рўйхатга олинган.
Нашр индекси – 466.
Буюртма – Г-137.
1742 нусхада босилди.
Қоғоз бичими А-2.
Ҳажми – 2 табоқ, офсет усулида босилган. Баҳоси келишилган нархда. ISSN 2181-8762.
Таҳририятга келган қўлёзмалар тақриз қилинмайди ва муаллифга қайтарилмайди.
Газета таҳририят компьютер марказида терилди ва саҳифаланди.
Газетанинг полиграфик жиҳатдан сифатли чоп этилишига «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси масъул.

**КОРХОНА МАНЗИЛИ:**

Тошкент шаҳри, «Буюк Турон» кўчаси, 41.

**Навбатчи муҳаррир** – А. Ҳақбердиев.

**Навбатчи** – Р. Хўжаева.

ЎзА якуни – 22.40.
Топширилди – 23.30. 1 2 3 4 5 6